# ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI TARIXI VA UNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti*
*Ingliz filologiyasi va o'qitish metodikasi tarjimashunoslik fakulteti*
*Xitoy tili yo'nalishi-25-02 102- guruh talabasi*
***Madrahimova Mushtariy Ismoiljon qizi***
*Ilmiy maslahatchi:* ***Zaynobidinova Irodaxon***
*Telefon:+998501000246*

**Annotatsiya:** Maqolada arab tilshunosligining shakllanish bosqichlari, Basra va Kufa maktablarining ilmiy yondashuvlari hamda arab grammatikasiga qo'shgan hissalari tahlil qilinadi. Shuningdek, arab tili leksikografiyasi, morfologiyasi va sintaksisining tarixiy rivoji hamda zamonaviy lingvistikadagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy manbalar, arab tilshunoslari va zamonaviy tatqiqotchilar qarashlari tahlil qilinib, muallifning kuzatishlari asosida umumiy xulosalar chiqarilgan. Ish natijalari arab tilining tarixiy va nazariy jihatdan o'rganilishida yangi ilmiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar**: *arab tilshunosligi, Basra maktabi, Kufa maktabi, grammatika, morfologiya, sintaksis, leksikografiya, ilmiy yondashuv.*

**Аннотация:**В статье анализируются етапы формирования арабского языкознания, научные подходы Басрийской и Куфийской школ, а также их вклад в развитие арабской грамматики. Кроме того, освещается историческое развитие арабской лексикографии, морфологии и синтаксиса, а также их место в современной лингвистике. В ходе исследования были проанализированы существующие научные источники, взгляды арабских лингвистов и современных исследователей, а также сделаны общие выводы на основе наблюдений автора. Результаты работы способствуют формированию нових научних взглядов в историческом и теоретическом изучении арабского языка.

**Ключевые слова**: *арабское языкознание, Басрийская школа, Куфийская школа, грамматика, морфология, синтаксис, лексикография, научный подход.*

**Annotation**: The article analyzes the stages of the formation of Arabic linguistics, the scientific approaches of the Basra and Kufa schools, and their contributions to Arabic grammar. In addition, it highlights the historical development of Arabic lexicography, morphology, and syntax, as well as their place in modern linguistics. During the researchers, existing scientific sources, the views of classical Arab linguists, and modern researchers were examined, and general conclusions were

new scientific perspectives in the historical and theoretical study of the Arabic language.

**Keywords**: *Arabic linguistics, Basra school, Kufa school, grammar, morphology, syntax, lexicography, scientific approach.*

Arab tilshunosligini jahon miqyosida Sibawayh, Ibn Jinni,
Al-Farohidiy, Zamaxshariy kabi mashhur olimlar chuqur tadgia
qilgan.
Bu olimlar arab grammatikasi, fonetika, morfologiya va
lug atshunoslikning ilmiy asoslarini yaratgan.
O zbek olimlaridan A. Rustamov, A. Madrahimov, Sh. Shukurov
va N. Komilov arab tilshunosligi bo gicha muhim ilmiy ishlar olib borgan.Ularning tadqiqotlari arab tili grammatikasi, lug atshunosligi va arab manbalarini organishda katta ahamiyatga ega.

Til har bir millat tafakkurining, madaniyatining va tarixiy ongining ifodasidir. Arab tili esa nafaqat aloqa vositasi, balki islom olamining ilmiy va diniy asosini tashkil etuvchi muqaddas til sifatida shakllangan. Shu bois arab tilshunosligi qadimdan ilmiy e’tiborda bo’lgan. Arab tiling fonetikasi, grammatikasi, leksikasi va yozuvi tizimini o’rganishga bag’ishlagan ilk ishlar Qur’on tili atrofidagi ilmiy ehtiyojdan kelib chiqqan.[1]

Mashhur arab tilshunosi M.AL-Farix (1987) fikr yuritgan:,Arab tilshunosligi inson tafakkuri va tilde ifodalangan mantiqiy tizim o’rtasidagi eng qadimiy ilmiy ko’prikdir’.

Shuningdek, tilshunos olim A. Hasan (1995) o’z tadqiqotida arab grammatikasi va fonetikasining rivoji ‘*faqat Basra yoki Kufa maktablari bilan cheklanmagan, balki ular bir-birini to’ldiruvchi ilmiy yo’nalishlar sifatida shakllangan’* deb ta’kidlaydi.

Bu g’oyalar yagona emas, balki A. Jorji va N.Abbos kabi olimlar ham arab grammatikasining rivojida turli maktablar o’zaro ta’sirda bo’lganini qayd etganlar.

Shunday qilib, arab tilshunosligi fan sifatida o’z davrining madaniy, diniy va ilmiy ehtiyojlari natijasida shakllangan bo’lib, bugungi zamonaviy lingvistika bilan uzviy aloqada rivojlanib bormoqda. [2]

Arab tilshunosligining eng qadimiy manbalari VII asrga to’g’ri keladi. Qur’onning nozil qilinishi arab tilining har bir so’zini, tovushini, grammatik tuzilishini chuqur o’rganish zaruratini keltirib chiqargan. Shu jarayonda Basra va Kufa shaharlarida ikki yirik ilmiy maktab shakllangan.

---

[1] Al-Farix, M.ARAB LINGUISTICS STUDIESS. OXFORD UNIVERSITY PRESS.1987
[2] Ibn Manzur. Lisan al-Arab. Bayrut:Dar Sadir, 1956.

Keyinchalik Ibn Manzurning ‘ Lisan al-Arab’ asari arab tili boyligini to’liq qamrab olgan va o’rta asr arab dunyosida ‘ tilning ensiklopediyasi’ sifatida tan olingan. Bu haqda A. Hassan (2003) ‘ Arab leksikografiyasining eng yirik manbasi Lisan al-Arab bo’lib, u arab xalqining madaniy xotirasini ifodalaydi, ‘ deya ta’kidlaydi. [3]

Bu tizim haqida Wright (1967) shunday deydi: ‘Arab tilidagi ildiz asosidagi morfologiya semanitkani tuzilma orqali ifodalovchi yagona tabiiy tizimdir. Ushbu fikrni I.Holes(2018) ham qo’llab-quvvatlab, arab tilidagi ildiz tizimi tildagi semantik izchilikni ta’minlovchi markaziy tamoyil ekanini e’tirof etadi.

Kuzatishlarimiz natijasida arab morfologiyasi tildagi mazmun va shakl uyg’unligini ifodalovchi o’ziga xos modelga ega ekani aniqlandi. Shuningdek, arab tili sintaksisida so’zlarining gapdagi o’rni va kelishik shakllarini grammatik ma’noni o’zgartiruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda arab tilshunosligi zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog’lanib bormoqda. Arab tili uchun avtomatik tarjima dasturlari, matn tahlil tizimlari, sun’iy intellect asosidagi ovoz tanish texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Al-Farix, M.ARAB LINGUISTICS STUDIESS. OXFORD UNIVERSITY PRESS.1987.
2. Ibn Manzur. Lisan al-Arab. Bayrut:Dar Sadir, 1956.
2. Sibavayh. Al-Kitab. Qohira: Dar al-Kutub, 1982
3. Versteegh, K., Greek Elements in Arabic Linguistic Thinking. Leiden:Brill.1997.

[3] . Sibavayh. Al-Kitab. Qohira: Dar al-Kutub, 1982